ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY USLUBDA MODAL SO'ZLARNING FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Hatamov Ziyodin Mamadullayevich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti doktoranti

Badiiy matn tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, o'quvchga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butinlik hisoblanadi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Tilshunos olim R.Qo'ng'urov *beshak, g'olibo, darkor, shoyad* kabi modal so'zlarning ko'proq poetik nutqda ishlatishini urg'ulagan bo'lsa[1], badiiy uslubni maxsus o'rganan olim S.Karimov ta'kidlab o'tadiki, arxeiklashgan *filhaqiqat, nafsambiriga, voqean* (haqiqatan, darvoqe), *g'olibo* hamda hozirgi tilimizdagi *shoyad, shaksiz, beshak, zero, darvoqe, aftidan* kabi modal so'zlar deyarli badiiy asarlar tilida uchraydi[2]. Demak, yuqoridagi modal so'zlar badiiy uslubga xoslangan modal so'zlardir. Yuqorida asosan nisbatan eskirgan modlllar keltirilmoqda. Bundaylar qatoriga *albat, mazmuni*, *har nechuk, alqissa* kabilarni, garchi vazifadosh bo'lsa-da, *hayfkim, taassufkim, taajjub(-ki*) singari nisbatan eskirgan so'zlarni ham qo'shsak xato bo'lmaydi, chunki bular ham deyarli badiiy uslubda qo'llanilishi kuzatiladi. Haqiqatan ham, eskirgan modal so'zlar badiiy uslubga oid matnlarda, uchraganda ham ko'pincha tarixiy nasriy asarlarda ko'zga tashlanadi. Ular tarixda bo'lgan hodisalar haqida hikoya qilganligi sababidan tarixiy davrni jonlantirish maqsadida ko'pincha qahramonlar nutqida va ba'zan muallif nutqida ishlatilgani kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan modallar ichida *aftidan, darvoqe, shoyad, taajjubki, hartugul* kabilar eskirmagan bo'lsa-da, haqiqatan, badiiy nutqda va nisbatan puplisistik uslubda ko'proq qo'llaniladi, shu uslublarga xoslangan. Bulardan tashqari *albatta, shak-shubhasiz, shubhasiz, darhaqiqat, haqiqatan, rostdan, chindan, to'g'risi, asli, aslida, chamasi, aftidan, shekilli, chamamda, nazarimda, hoynahoy, ehtimol, balki, mabodo, ajabmas(ki), har qalay, har holda*, *haytovur, ishqilib xayriyat, xayriyatki, baxtimga, yaxshiyam(ki), afsus(ki), attang, esiz, nachora, ajabo, tavba, qani endi, qaniydi*, *koshki, koshkiydi, zora, menimcha, xullas, demak, shunday qilib, nihoyat, axiri, avvalo, avvalambor, deylik, borinki, aytganday, aytmoqchi, aytgancha, qolaversa* kabi turli nutq uslublarida qo'llanadigan modal so'zlar badiiy uslubda ham keng qo'llanishi kuzatiladi. Umuman, badiiy uslun o'ziga xos qorishiq uslub bo'lgani sababli modal so'zlarning barchasi ishlatilishi mumkin. O'z vaqtida S.Karimov ta'kidlagandiki «badiiylikka xizmat qilish faqatgina emotsional-ekspressiv bo'yog'i yaqqol sezilib turadigan birliklarninggina vazifasi emas. Badiiy asardagi ifodaning umumiy ruhi, tafsilotlar oqimi undagi har bir birlikni badiiy estetik manzarani yaratishga xizmat qiluvchi uzviy a'zoga aylantira oladi[3]«. Kattagina qismi modal so'zlardan bo'lgan kirishlarning emotsional-ekspressivlikni vujudga keltirishdagi ro'li X.Xoliqov tomonidan o'z davrida qisman o'rganilgan. Olim A.Qahhor asarlari asosida murakkablashgan sodda gaplarni tadqiq etgan va ulardagi kirish va kiritmalarning uslubiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratgan[4]. Olim ishida *albatta, darhaqiqat, shubhasiz, to'g'ri, aftidan, xayriyat* kabi modal so'zlarni kirish sifatida A.Qahhor ijodi asosida o'rganadi[5]. Lekin unda ushbu modal so'zlarning odatdagi vazifa va ma'nolarda qo'llanishi misol o'laroq keltiriladi. Xususan, ishda keltirilgan *Zulfiqorov birovdan paxta olib plan to'ldirganligi, albatta, ko'zbo'yamachilik* («Sinchalak» qissasi) kabi misolda albatta so'zi ta'sirchanlikni kuchaytiradi, lekin bu so'z odatiy ma'noda qo'llangan.

Umuman, yuqorida keltirigan modal so'zlarning barchasi har qanday nutq uslubida ekspressiyani qay darajadadir kuchaytiradi. Ma'lumki modal so'zlar ma'lum ma'nolar ifodalash uchun turg'unlashgan, ma'lum subyektiv modal munosabat ifodalash uchun

[1] Қўнғуров Р. Қ. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. (Лексиялар тексти), II қисм, - Самарқанд, СамДУ, 1980. – 51 б.
[2] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, Зарафшон, 1992. – 72 б.
[3] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – 99 б.
[4] Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти (А.Қаҳҳор асарлари материаллари асосида): Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 104 -105.
[5] Ko'rsatilgan manbaa 78-80-betlar.

xoslangan va shu sababli ma'lum umumiy mazmuniy guruhlarga birlashadi. Ular ko'proq so'zlashuv uslubi uchun xoslangan bo'lsa-da, badiiy uslubda ham poetik aktuallashishi, estetik qiymat kasb etishi, badiiy tasvir vositalarini vujudga keltirishi mumkin. Badiiy matnni o'rgangan olim M. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek «Yaxlit badiiy matn èki muayyan badiiy kontekstga ko'ra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qo'shimcha, yangi badiiy ma'nolar ifodachisiga aylanadi[1]«. Bunday xususiyat modal so'zlarga ham begona emas. R.Qo'ng'urov bu haqida shunday yozadi. «Ular o'rni bilan emotsional munosabatni kuchaytiruvchi tasviriy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu modal so'zlarning birinchi va eng umumiy stilistik belgisi deb qaralishi lozim[2]«. Quyida modal so'zlar asosida yuzga keluvchi shunday holatlarga alohida to'xtalamiz.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, badiiy uslubda har qanday so'zlar o'zi bildirgan ma'no va vazifadan tashqari, turli sintaktik strukturalarda turlicha emotsional-ekspressiv ma'nolarni kuchaytiruvchi stilistik vosita va figuralarni hosil qilish imkoniyatlariga ega bo'la olishi mumkin. Asar muallifining mahorati, badiiy niyati, umuman, asarining xususiyatlari tufayli bunday so'zlar ba'zi ifoda tasvir vositalarini yuzaga kelishida muhim ro'lini o'ynashi mumkin. Ayniqsa, kinoya (ironiya) ustiga qurilgan, ironik mazmun ustunlik qiluvchi, ya'ni hikoyachi ifodalangan voqelikka kinoyaviy (ironik) munosabatda bo'lgan asarlarda bu holat ko'zga tashlanadi. Rus tilshunosligida modal so'zlarning stilistik maqsadlarda ba'zi stilistik ifoda vositalarini yuzaga keltirish imkoniyatlari o'rganilgan. Razlogova Elena Emilevna quyidagi fikrlarni bayon qiladi: «Modal so'zlar nutqda faqat ma'noni aniqlashtirish yoki so'zlovchining munosabatini bildirish uchun emas, balki ironiya, ta'na (sarkazm), yumshatish yoki kuchaytirish kabi uslubiy maqsadlarda ham ishlatiladi[3]«. Garchi tillar bir biriga yaqin bo'lmasa-da, bunday uslubiy maqsadlarda ishlatilish hollari o'zbek tili modallariga ham xosdir.

Ironiya badiiy asarlarda ifodaning ta'sirliligini oshiruvchi maxsus stilistik figuralardan biridir. Umuman, u oddiy so'zlashuvda ham badiiy uslubda tez-tez qo'llaniladi va maxsus ifodal usuli sanaladi. Ironiya haqida maxsus tatqiqot olib borgan E. Ibragimova shunday ta'kidlanadi: «Uslubshunoslikda nutq jarayonida suhbatdosh harakati yoki holatiga nisbatan bildirilgan ichki yashirin salbiy munosabat ifodalash usuli ironiya deb ataladi[4]«. Badiiy asarlarda ironik ifoda uslubidan asosiy maqsad ta'sirchanlikni taminlashdir. Xususan, A. Abdulayev monografiyasida ironiya usulini qo'llashdan asosiy maqsad fikrni o'ta ta'sirchanlik bilan o'tkazishga erishishdir» deya ta'kidlaydi[5]. O'zbek adabiyotidagi qator ijodkorlar asarlarida ironik mazmun vujudga keltirishda modal so'zlardan foydalanilgan. Masalan, yozuvchi A.A'zam o'zining asarlarida modal so'zlardan kinoyani vujudga keltirishda foydalanadi. Quyidagi parchaga diqqat qaratsak. *Madhiddinning nimasidir talabalar orasida «Savlatxonov» deb nomi ketgan domla Ziyoxon Ahmadxonovni eslatadi. Bilaman, o'qishni bitirgach, u avval* ***albatta*** *kichik ilmiy xodim bo'ladi, keyin* ***albatta*** *katta ilmiy xodim! Avval amal-taqal qilib yuz ellik qog'ozni to'ldiradi-da, fan kandidati unvoniga erishadi, keyin o'shanga yana ikki yuz bet (insofiga qarab!) qo'shsa kifoya – fan doktori!(E.A'zam, Otoyining tug'ilgan yili).* Asar bosh qahramoni tilidan hikoya qilinadi va kursdoshi Muhiddini savodi hamin qadar bo'lgan o'qituvchisiga qiyoslaydi. Unga nisbatan salbiy munosabatni ironiyaning bir ko'rinishi bo'lgan sarkazm vositasida bildiradi. Parchadagi ishonch bildiruchi *albatta* so'zi hikoyachi nuqtayi nazari va boshqa til birliklari bilan uyg'unlikda sarkazmni ifodalashda muhim ro'l o'ynaydi. Hikoyachining kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarga *albatta* so'zini ikki marta takrorlash orqali bu qadar ishonch bilan so'zlashi kinoyani vujudga keltirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu asarning bir o'rnida yozuvchi bosh qahramon tilidan mol-dunyoga qarab yigitlarni baholaydigan qizlarni masxara qilish maqsadida kuchli sarkazmdan foydalanadi. Bosh qahramon yigit ichki nutqi: *Ularning muddaosi shu, ko'zlari shundan boshqa narsani ko'rmaydi! Men* ***balki*** *gaz suv sotarman,* ***balki*** *bozorda «svejiy» go'sht ko'tarib yuradigan chayqovchidirman,* ***balki*** *to'yma-to'y sang'iydigan otarchidirman,* ***balki*** *o'taketgan qallob, tovlamachidirman,* ***balki*** *«Oltin Orfey» mukofotini qo'lga kiritib, sopotlik shinavandalar ko'nglida g'ulg'ula qo'zg'agan kelajagi porloq, xushbaxt qo'shiqchidirman,* ***balki*** *Toshkent otchoparidagi pog'onalarda tomoshabinlarni hayajonga solib, olqish olgan uchqur chavandozdirman.* Bu ichki monologda olti marta takrorlangan *balki* so'zi, qarama-qarshi kasb egalari nomlari, qo'pol bo'yoqdor leksika va bir varvarizm (svejiy) vositasida kuchli sarkazm ifodalangan. Avvalo, hikoyachi o'zining kim-

[1] Йўлдошев М. Бадиий матн линвопоетикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 21 б.

[2] Қўнғуров Р. Қ. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. (Лексиялар тексти), II қисм. – Самарқанд, СамДУ, 1980. – 50 б.

[3] Разлогова Е. Э., Логико-когнитивные и стилистические аспекты семантики модальных слов: диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Москва, 2005. – С. 168.

[4] Ибрагимова Е. И. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари. Филология фанлари номзоди дисс. автореф. – Фарғона, 2001. – 8 б.

[5] Абдуллаев А. Ўзбек тилида експрессивликни ифодалшнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 36 б.

ligini bilgan holda bunga shubha bildirib, boshqa kasb egalari bilan o‘zini go‘yo qiyoslaydi. Bunda *balki* so‘zi vositasida shusiz ham ironiya hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu so‘zining qayta-qayta takrorlanishi achchiq zaxarxanadalik, masaxaralash kabi ma’nolarni ketma-ket kuchaytirib boradi. Natijada fikrlar kuchli ta’sirchanlik bilan o‘quvchiga o‘tkazishga harakat qilinadi. Bundan tashqari, Bir so‘zning badiiy asarda takrorlanishi badiiy takrorni vujudga keltiradi.

Umuman, ushbu asar muallifi modal so‘zlar takroridan foydalanib o‘ziga xos kinoyaviy mazmun va ohang yaratishni o‘z uslubiga aylantirgan. Badiiy takrorni maxsus o‘rganagan A.Shofqorov ta’kidlaydiki «badiiy asardagi takrorlar emosional-ekspressivligi, stilistik xususiyatlari, badiiy-estetik kimmati, obrazliligi bilan farqlanib turadi, ijodkorning o‘ziga xos uslubini keltirib chiqaradi[1]«. Asardagi yana ba’zi parchalarni o‘rganganimizda bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu asardan bosh qahramon ichki nutqi bo‘lgan yana bir parcha: *Mashrabning oti nega Mashrab! Ona qornida yig‘lagani uchunmi?* ***Ajabo,*** *u nimaga yig‘lagan ekan?* ***Tabiiyki****, tug‘ilayotganda odamzod faryod bilan dunyoga keladi. (Nega?)* ***Tabiiyki,*** *uni darhol ovutishga tushadilar. (Tinchlik kerak!)* ***Tabiiyki,*** *u bir payt yig‘idan to‘xtaydi. (To‘xtamasa-chi?) Ammo ba’zilar shunga odatlanib qoladi.* Ushbu matnda bosh qahramon mulohazalari istehzo, masxara bilan yo‘g‘rilgan. Istehzo o‘zbek tilida ironik mazmun ifodalash usullaridan biridir Istehzo arabcha so‘z bulib, kimsaning ustidan kulish, masxaralash degan ma’noni anglatadi[2].U Mashrab shoirning oti emas, taxallusi ekanini, nima ma’no anglatishini yaxshi biladi. Aslida, bu mantiqsiz savolni unga savodi hamin qadar o‘qituvchisi dars jarayonida bergan. Matnda *ajabo* so‘zi orqali oddiy holatdan qahramon go‘yo o‘zini ajablangandek ko‘rsatadi, u yordamida ritorik so‘roq gap yuzga keltiriladi, natijada gap ta’sirchanligi ortadi. Keyin *tabiiyki* so‘zi har bir gap boshida takrorlanib odatiy voqealar ketma-ketligini urg‘ulab istehzo ohangi kuchaytiriladi.

Asarning yana bir o‘rnida ehtimol modal so‘zidan foydalanib xuddi shunday istehzo yaratilgan. Bosh qahramon maktabdagi birinchi muhabbatini shunday eslaydi: *Muhabbatmidi bu? Bilmayman. Muhabbat bo‘lsa...* ***Ehtimol,*** *hozir uning o‘rta hisobda uchta bolasi bordir.* ***Ehtimol,*** *hozir u bir paytlar men bilan o‘qiganini, umuman, o‘qiganini ham unutib yuborgandir.* ***Ehtimol,*** *hozir to‘ng‘ich o‘g‘lini maktabga jo‘natib, kenja qizini chirqillatib kiyintirish taraddudidadir.* Qahramon ichki iztirobini kinoya ostiga yashiradi. Ehtimol so‘zi matnda ikki qavatli ma’no yaratadi: tashqi qatlamda u oddiy taxmin bo‘lib ko‘rinsa, ichki qatlamda muallifning chuqur iztiroblarini yashirgan **ironik niqob** vazifasini bajaradi. Ushbu parchada ushbu so‘z irnoniya stilistik figurasini hosil qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi, chunki emotsional-ekspressiv ta’sir aynan shu *ehtimol* so‘zini ishlatish va takrorlash orqali vujudga keltirilgan.

Ma’lumki, ritorik so‘roq ham badiiy uslubda ifodani kuchaytiruvchi, kinoyani yaratuvchi stilistik figuralardan biridir. Ushbu asardagi modal so‘z qatnashgan ba’zi misollar: *Naqadar olijanobmiz-a! Ko‘chada qolgan bir kampirni mehmonxonaga joylashtirdik!* ***Rostdan ham*** *shunaqa oliyjanobmizmi? Boshda uni tilanchi deb o‘yladik.* Ushbu parchadagi asosiy kinoyaviy mazmunni birinchi gap yuzga keltiradi. Rostan ham modal so‘zi vositasida yuzaga kelgan ritorik so‘roq so‘roq gap, aslida, teskari mazmun ifodalaydi. So‘zlovchi o‘ziga nisbatan istehzoli munosabatda bo‘ladi.

Modal so‘zlarnin bunday stilistik maqsadlarda ishlatilishi bejiz emas. Sababi ironik (kinoyaviy) munosabat hodisasi modal munosabatning bir ko‘rinishi bo‘lib, modallik kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. I. Ibragimova ta’lidlaydiki **«**Ironik munosabatga modallik kategoriyasi doirasida qarash lozim. Nutq birliklarining o‘zaro aloqasini taminlovchi sanjir-ko‘prikdir. Ironiya nutq hodisasi sifatida xususiy, faqat subyektiv baho anglatib modallikning salbiy ko‘rinishi sanaladi[3]**«**. Ironiya modallining bir ko‘rinishi ekan, unda modal so‘zlarning ishtirok etishi tabiiy holdir.

Tilshunosligimizda kirish va kiritmalarni umumlashtirib parantez birliklarni maxsus o‘rgangan D.Jamoliddinova ayrim hollarda yozuvchi poetik aktuallashtirish maqsadi bilan kirishlarni badiiy matnda kiritma pozisiyasida qo‘llash orqali ham matn ta’sirchanligini oshirishi mumkinligini ta’kidlagandi[4]. Bu matnda xuddi shunday holat mavjud. *Nuqul dohiylarni davolagan (Chingizxon-u Napoleondan bo‘lak,* ***afsuski,*** *bular oldin o‘tgan-da, yo‘ksa, ularni-da davolagan bo‘lardi!) zot uning oyoklarini juftlab qayish bilan chandib tortadi-yu karavot adog‘idagi nimagadir mahkam qistirib ko‘yadi.* (E.A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli). Soxta tabib haqida gap ketadigan ushbu parchda ham modal so‘z kinoyani

[1] Шофкоров. М. А., Узбек тилида бадиий такрор. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 22.

[2] Ибрагимова Е. И. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари. Филология фанлари номзоди дисс. автореф. – Фарғона, 2001. 15-б.

[3] Ибрагимова Е. И. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари. Филология фанлари номзоди дисс. автореф. Фарғона-2001. 5-б.

[4] Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик, грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. - Тошкент: Фан 2011 97-б.

yuzga keltirib, ekspressivlikni oshiruvchi muhim vosita bo‘ladi.

Modal so‘zlar ba’zi uslubiy vositalarni vujudga keltirishi imkoniyatlari to‘g‘risida yanada batafsilroq to‘xtalamiz. Razlogova Elena Emilevna dissertatsiyasida modal so‘zlarning **antifraza, litota, giperbola, metalepsiya** kabi uslubiy figuralar bilan bo‘g‘liq bo‘lishini ta’kidlab shundau yozadi: **«**Bu shunday kontekstlarga tegishliki, modal so‘zlar bunday figuralar tuzilishining asosiy elementi sifatida ishtirok etadi, Ya’ni agar modal so‘z undan chiqarib tashlansa, uslubiy figuraning ta’siri yo‘qoladi[1]**«**. Bunday holatlar o‘zbek tilidagi so‘zlashuv va badiiy nutq uslublarida ham kuzatiladi. Antifrazani R. Qo‘ng‘urov shunday ta’riflaydi: **«**Ironiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, bir shaxs yoki predmetga xos bo‘lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili intonatsiya bilan inkor qilinadi[2]**«**. Umuman olganda u so‘zni teskari ma’noda ishlatishdir. Antiteza hissiy munosabat bildiruvchi, shuningdek, ishonch yoki shubha-gumon bildiruvchi modal so‘zlar bilan hosil qilinadi. Ayniqsa, ironik mazmunli badiiy asarlarda ular shu maqsadda tez-tez ishlatiladi. ***Xayriyatki,*** *men hali andak kulishga qodirman. Yo‘qsa, xunobim oshib, vaqtidan burun jon taslim etgan bo‘lardim. Hastalik nomini bilgim keladi, bilmoq ilinjida yana ozgina yashab qolsam,* ***ne ajab****?.. (M. M. Dost,* **«***Lolazor***»***).* Ushbu ichki nutqdadan olingan parchada bosh qahramon iztiroblari aks etgan. Aslida, ***xayriyatki*** so‘zi quvonchni bildiradi, lekin qahramonning kulishga qodirligi haqiqiy mamnunlik emas, zaxarxandaga yo‘g‘rilgan afsusdir. Ushbu so‘z bunda quvonchini emas, istirob, umidsizligini bo‘rtirish uchun qo‘llangan, teskari manoda ishlatilgan. Ya’ni *xayriyatki* so‘zi afsuslanishni anglatmoqda. Natijada so‘zning asl ma’nosi va qahramonning asl holati o‘rtasida ziddiyat antifraza yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu so‘z butun jumlaga ta’sir o‘tkazadi, achchiq kinoya ta’sirdorlikni oshiradi.

Yana bir misol: *Miskar biron odamni nohaq qoralashga tushganda esa,* **«***Gunohga botishni buncha xush ko‘rasiz-a, birodar? – derdi bobom bosh chayqab.* ***Koshkiydi,*** *hamma siz aytgan kishidek pokdomon bo‘lsa – dunyo behishtga aylanib ketardi. Yo kechagi bozor qo‘yini arzon-garov bermagani shunchalik alam qilyaptimi?***»** (E.A’zam, Otoyining tug‘ilgan yili). *Koshkiydi* so‘zi istak-tilakni ifodalovchi, uni kuchaytiruvchi so‘z hisoblanadi. Lekin bu parchada **«**afsuski, istasang ham, istamasang ham hamma pokdomon bo‘lmaydi**»** degan yaxshirin ma’no bor. Modal so‘z bu o‘rinda ham asl ma’nosida emas, personajning miskarga nisbatan istezosini ifodalashda ishtirok etadi. Antifrazani ochib beruvchi **«**kalit so‘z**»** hisoblanadi. Afsuslanishni bildiruvchi modal so‘zlar ham teskari ma’noda qo‘llanib antifrazani ifodalashda qatnashishi mumkin. *Yaxshiboyevning so‘zi hech tugay demasdi. Mavzu o‘sha-o‘sha –***»***chala akademik***»***ni chandish-u menga tan berish. Eshitmay desam,* ***afsuski,*** *kar emasman. Eng yomoni – avval erish tuyulgan so‘zlar endi moyday yoqib boryapti (M. M. Dost,* **«***Lolazor***»***).* Bu bosh qahramoning ichki nutqi bo‘lgan parchada *afsuski* so‘zi asl ma’nosida emas. U ishtirok etgan gap, aslida, **«**qaniydi, kar bo‘lsam, bu gaplarni eshitmasam**»** degan tag ma’noni ifodalanmoqda. Ya’ni modal so‘z afsuslanishni ifodalamaydi. U boshqa til vositalari bilan birga kinoya paydo bo‘lishida muhim element o‘laroq ishtirok etadi. Agar yuqoridagi misollarda modal so‘zlar chiqarib tashlansa, uslubiy figuraning ta’sirchanligi pasayib ketadi. Kinoya sezilmas holga kelishi mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga ishonch yoki shubha-gumon bildiruvchi modal so‘zlar ham badiiy uslubda aks ma’noda qo‘llanishi mumkin. **«***Obbo, bu bo‘la degani xiyla betakalluf chiqib qoldi-ku? – dedim ichimda. – Bo‘la bo‘lgandan keyin nima qilsin? yong‘oq o‘yinda yutqazib yig‘laganimgacha yodida ekan,* ***chindan ham*** *bo‘lam* ***shekilli»***(E.A’zam, Otoyining tug‘ilgan yili). Ushbu parchada bosh qahramon gaplashgan va bolaligidagi hodisani eslatgan odam o‘zining bo‘lasi ekaniga shubha qolmagan, lekin *shekilli* so‘zi bilan bunga shubha bildiradi. Uni teskari ma’noda qo‘llab kinoya hosil qilinadi. Bunday holat boshqa ijodkorlar asarlarida ham uchraydi: *O‘z erini bemalol tuproqqa qorishtirib* **«***Murodjon aka***»***sini og‘zidan bol tomib maqtayotgan ko‘hlik juvon ko‘zimga xunuk ko‘rinib ketdi.* **«*****Ehtimol,*** *ering seni deb ichkilikka ruju qo‘ygandir,* ***balki*** *rostdan ham alamidan ichar!***»** *Yana birpas o‘tirsam, shu gaplar og‘zimdan chiqib ketishini bilib, o‘rnimdan turdim* (O‘tkir Hoshimov, **«**Dunyoning ishlari**»**). Ushbu parchadagi *ehtimol* so‘zi teskari ma’noda qo‘llangan. Aslida muallif **«**aniq seni deb ering ichkilikka ruju qo‘ygan**»** demoqchi. Modal so‘z bu o‘rinda umumiy antifraza bo‘lgan gapning bir qismi, antifrazaning boshlanish nuqtasi bo‘ladi, kinoyani yanada nozikroq ifodalashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, litota ham badiiy tasvir vositalaridan biri sanaladi. Azim Hojiyev uni shunday izohlaydi: **«**Litota (yun. litotes-oddiylik) narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlash. Mas., *ko‘p* so‘zi ornida *kam emas*, *yaxshi* so‘zi o‘rnida *yomon emas* shaklining qo‘llanishi[3]**»**. Litota deyilganda mumtoz adabiyotda biroz boshqacha,

[1] Разлогова Е. Э., Логико-когнитивные и стилистические аспекты семантики модальных слов .диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. - Москва: 2005. с- 168-170.

[2] Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан нашриёти, 1977. 82-б.

[3] Ҳожиев А., Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий енциклопедияси нашриёти.

haddan ziyod mubolag‘ali kichraytirish nazarda tutiladi. R. Qo‘ng‘urov ta’kidlashicha, litota bilan parallel **mayozis** termini qo‘llanadi[1]. Yuqoridagi ta’rif aynan rus tili va adabiyoti orqali o‘zlashgan shu **mayozis** terminiga mos keladi. Tilimizdagi modal so‘zlar badiiy uslubda litota yuzaga keltirishda ham faol qo‘llaniladi.

Badiiy uslubda modal so‘zlar faqatgina so‘zlovchining munosabatini ifodalash vositasi bo‘lib qolmay, balki badiiy tasvirning muhim unsurlaridan biriga aylanadi. Ular ironiya, istehzo, sarkazm kabi stilistik figuralarni yuzaga keltirish orqali matnning emotsional-ekspressivligini oshiradi va o‘quvchiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi. Modal so‘zlarning takrori, aks ma’noda qo‘llanishi yoki kiritma birlik sifatidagi ishlatilishi badiiy matnda chuqur ma’no qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Demak, modal so‘zlar badiiy asarning estetik ruhini yaratishda, qahramon xarakterini ochishda hamda muallifning badiiy niyatini ifodalashda beqiyos stilistik imkoniyatlarga ega bo‘lgan til vositasidir.

Rezume. Ushbu maqolada badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari tahlil qilingan. Modal so‘zlarning badiiy matnda estetik qiymat kasb etishi, ularning ironik (kinoyaviy) mazmun yaratishdagi o‘rni yoritilgan. Unda modal so‘zlarning turli vazifalari, xususan, ironiya, sarkazm, istehzo, antifraza kabi stilistik figuralarni yuzaga keltirishdagi ahamiyati yozuvchilar asarlaridan olingan parchalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, modal so‘zlarning badiiy matn ta’sirchanligini oshirishdagi, personaj nutqini xarakterlashdagi va muallifning estetik niyatini ifodalashdagi roli ilmiy manbalar bilan asoslab berilgan.

Резюме. В данной статье анализируются функционально-стилистические особенности модальных слов в художественном стиле. Показана эстетическая ценность модальных слов в художественном тексте и их роль в создании иронического содержания. В ней анализируются различные функции модальных слов, в частности, важность создания стилистических фигур, таких как ирония, сарказм и антифраза, на основе отрывков из произведений писателей. Кроме того, роль модальных слов в повышении эффективности художественного текста, характеристике речи персонажа и выражении авторского эстетического замысла обоснована научными источниками.

Rezume. This article analyzes the functional and stylistic features of modal words in literary style. The aesthetic value of modal words in a literary text and their role in creating ironic content are showed. In it, various functions of modal words, in particular, the importance of creating stylistic figures such as irony, sarcasm, irony and antiphrasis, are analyzed based on excerpts from the works of writers. In addition, the role of modal words in increasing the effectiveness of the artistic text, characterizing the character’s speech and expressing the author’s aesthetic intention is substantiated by scientific sources.

2002. 59-б.

[1] Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан нашриёти, 1977. 95-б.